



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**



**“Zahiriddin Muhammad Bobur merosining sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni” mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2026-yil 12-fevral.**

**Mas’ul muharrir:**

**Sh. Sirojiddinov**

*filologiya fanlari doktori, akademik*  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili  
va adabiyoti universiteti rektori

**Tahrir hay’ati:**

N.Normurodova – ilmiy va innovatsiya ishlari bo‘yicha prorektor  
H.Dadaboyev – filologiya fanlari doktori, professor  
Z.Xolmanova – filologiya fanlari doktori, professor  
B.Abdushukurov – filologiya fanlari doktori, professor  
M.Xakimova – filologiya fanlari doktori, professor  
M.Qurbonova – filologiya fanlari doktori, professor  
M.Umurzoqova – filologiya fanlari doktori, professor v.b.  
M.Abjalova – filologiya fanlari doktori, professor v.b.  
S.Bozorova – katta o‘qituvchi  
D.Muhammadiyeva – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
M.Shamsiyeva – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
I.O‘razova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.  
G.Komilova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
M.Xolmuradova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
M.To‘xtasinova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
D.Mahkamova – katta o‘qituvchi  
Z.Davronova – tayanch doktorant  
Z.O‘rinova – tayanch doktorant  
M.Abduazizova – tayanch doktorant

Ushbu to‘plamda Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 543 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan “Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni” mavzusidagi uluslararo ilmiy nazariy konferansi materiallari jamlangan. To‘plamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, faoliyati, adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyot rivojida tutgan o‘rni, adabiy-lingvistik, tarixiy-sotsiologik tadqiqi, shuningdek, Bobur va boburiylar siymosining zamonaviy adabiyotdagi badiiy talqini, adabiy ta’sir va izdoshlik masalalariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavriat talabalari hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.



**THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE, AND  
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK  
LANGUAGE AND LITERATURE**

**UZBEKISTAN WRITERS UNION BABUR INTERNATIONAL PUBLIC  
FOUNDATION**

**The Proceedings of the International Scientific Theoretical Conference**

**“THE IMPACT OF ZAHIR AD-DIN  
MUHAMMAD BABUR'S LEGACY  
ON THE ADVANCEMENT OF  
EASTERN STATEHOOD AND  
CULTURE”**

**Tashkent – 2026**



**The Proceedings of the International Scientific Theoretical Conference “The Impact Of Zahir Ad-Din Muhammad Babur's Legacy On The Advancement Of Eastern Statehood And Culture”. – Tashkent, 2026.**

**Editor-in-Chief:**

**Shukhrat SIROJIDDINOV**

*Doctor of philological sciences, academician*

*The Rector of the University of the Uzbek Language and literature named after Alisher Navoiy*

**Editorial Board:**

N.Normurodova – Vice Rector for Research and Innovation  
H.Dadaboev – Doctor of philological sciences, professor  
Z.Kholmanova – Doctor of philological sciences, professor  
B.Abdushukurov – Doctor of philological sciences, professor  
M.Khakimova – Doctor of philological sciences, professor  
M.Kurbanova – Doctor of philological sciences, professor  
M.Umurzakova – Doctor of philological sciences, professor  
M.Abjalova – Doctor of philological sciences, professor  
S.Bozorova – senior teacher  
D.Muhammadiyeva – Candidate of philological, associate professor  
M.Shamsiyeva – Candidate of philological, associate professor  
I.Urazova – Candidate of philological, associate professor  
G.Komilova – Candidate of philological, associate professor  
M.Kholmuradova – Candidate of philological, associate professor  
M.Tokhtasinova – Candidate of philological, associate professor  
D.Mahkamova – senior teacher  
Z.Davronova – doctoral student  
Z.Urinova – doctoral student  
M.Abduazizova – doctoral student

This collection contains the materials of the international scientific-theoretical conference on the topic “The Impact of Zahir Ad-Din Muhammad Bobur’s Literary Legacy on the Advancement of Eastern Statehood and Culture” held on the 543st anniversary of the birth of the great poet and scientist, famous political leader Zahir Ad-Din Muhammad Bobur. In this collection, the life and activities of the king and poet Zahir Ad-Din Muhammad Bobur and the role of his literary and scientific heritage in the development of classical literature: literary-linguistic, historical sociological research, as well as the literary interpretation of Bobur and the Boburids’ in modern literature: literary influence and followers articles devoted to the issues. The book is intended for philological specialists, scientific researchers, graduate and undergraduate students, as well as a wide readership.

The attitude of the authors and the spelling of the titles of the works may differ from the editorial point of view.



### III SHO'BA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHE'RIYATINING ADABIY JARAYON TAKOMILIDAGI O'RNI

## BOBUR RUBOIYLARIDA QOFIYANING BADIY YUKI THE ARTISTIC LOAD OF RHYME IN THE RUBAI OF BABUR

**Hamroyeva Orzigul Jalolovna**

DSc, professor.

ToshDO'TAU, Toshkent, O'zbekiston

[hamroyeva@navoiy-uni.uz](mailto:hamroyeva@navoiy-uni.uz)

0000-0002-3904-9712

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./PVRU7928](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./PVRU7928)

**Annotatsiya.** *Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur lirik merosining poetik xususiyatlarini aniqlash barobarida shoir qofiya tizimining turkiy qofiya nazariyasiga ta'siri masalalari tahlilga tortilgan. Mumtoz adabiyotda shoirning mahorati mohiyat va tasvirni berish uslubi bilan belgilangan. Natijada mumtoz shoirlar ijodida mazmun va shakl butunligi takomillashdi. Xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida bu tamoyil shoir uslubining asosini tashkil etadi. Shoirning poetik shakllarga qo'ygan talabi, poetik shakllardan foydalanish prinsipi ijodining bosh tamoyili sanaladi.*

**Kalit so'zlar:** *manba, matn, qofiya, radif, hojib, qofiya harflari, qofiya harakatlari, g'azal, ruboiy, bayt.*

**Annotation.** *This study aims to determine the poetical traits of Zahiriddin Muhammad Babur's lyrical legacy and investigate how his rhyme scheme influenced Turkic rhyme theory. The essence and technique of representation determine a poet's proficiency in classical literature. Thus, one characteristic of classical poetry is the coherence of form and content. Specifically, this idea forms the basis of Babur's poetical approach. To convey his artistic meaning, the poet used rhyme. The purpose of the study is to evaluate Babur's poetical skill and rhyme scheme.*

**Keywords:** *source, text, rhyme, radif, hajib, rhyme letters, rhyme movements, ghazal, rubai, bayt.*

She'r butunligini ta'minlovchi asosiy unsurlardan biri qofiyadir, hatto she'r binosini ushlab turuvchi asosiy tirgaklik qofiya asosida yuzaga chiqadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Garchi biz qofiya nazariyasini arab, fors nazariyasi asosida shakllanganini manbalar asosida e'tirof etsak-da, turkiy til qonuniyatlari asosida bu nazariya qayta ishlandi, takomillashtirildi. Mumtoz shoirlar ijodida vazn kabi qofiyaning arab va fors qofiyasi ta'siridagi shakllari uchrasa-da, turkiy qofiyaning asosi, paydo bo'lishi turkiylarning asl vazni bo'lmish barmoq vazni bilan parallel paydo bo'lganini bir qancha manbalar tasdiqlaydi. Shu sabab Shayx Ahmad

Taroziy “Funun ul balog‘a” asarida she‘rning asosi vazn (aruz) emas, aynan qofiya ekanligini ta’kidlagan edi [Taroziy, 1996: 65]. Turkiy she‘riyatda, shoirlar ijodida ana shu holatning amaliy ifodasini ko‘rish mumkin.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi, lirikasi badiiylik mezonlari, poetik qonuniyatlar asosida tadqiq etilsa, shoir poetik olami mukammal va beishlov, betakror ekanligiga guvoh bo‘lish mumkin. Aslida har bir shoir ijodida qofiyaning o‘z o‘rni bor. Shoir anglatmoqchi bo‘lgan mohiyatning asosini qofiyada berishga harakat qiladi. Chunki qofiya ohangdorlikka asoslangani, mantiqiy urg‘u olganligi bois ham badiiy maqsadni tashuvchi asosiy unsur sanaladi. Bu – qofiyaga oid umumiy qonuniyat. Biroq har shoirning qofiyaga yuklagan o‘z maqsadi bo‘ladi. Shu jihatdan an‘anaviylik va novatorlik masalalari tadqiq etiladi. Bobur g‘azallari qofiya tizimining tadqiqi shoir ijodida an‘anaviylikdan ko‘ra novatorlik, o‘ziga xoslik tamoyillari ustuvor ekanligini ko‘rsatdi. Bu tadqiq shoir lirikasida qofiyaning o‘rni masalasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelinishiga asos bo‘ldi:

1. Qofiya baytdagi poetik shakldan ko‘ra shoirning badiiy maqsadini yetkazuvchi asosiy vosita vazifasini bajargan;

2. Shoir ijodida asliy qofiyaning ishtiroki she‘r butunligini ta‘minlab beruvchi asosiy mezon vazifasini bajargan;

3. Qofiyaning qofiya harflarining ishtirokiga ko‘ra mujarrad qofiya turining qo‘llanishi yetakchilik qiladi;

4. Shoir badiiy yukni asosan qofiya va radifga yuklagan, shu bois shoir lirikasida muraddaf baytlar salmoqli hajmga ega;

5. Inversiya asosidagi joylashuv bayt kompozitsiyasini belgilab bergan, natijada fe‘l so‘z turkumiga oid so‘zlarning qofiya sifatida keltirilishi ko‘p emas.

Bobur ruboiylaridagi qofiyadosh so‘zlarning deyarli barchasi asliy qofiya turiga mansub bo‘lib, ularning qo‘llanishi ruboiy mazmun-mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etgan.

*Ko‘pdin berikim, yor-u diyorum yo‘qtur,*

*Bir lahza-yu, bir nafas qarorim yo‘qtur.*

*Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,*

*Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qtur* [Bobur, 1965: 168].

Vatan sog‘inchi va lirik qahramon tuyg‘ularining ifodasi aks etgan ruboiyda “yo‘qtur” so‘zi radif vazifasida ma‘noni kuchaytirish vazifasini bajargan. Odatda radifning qo‘llanishi bir qancha maqsadlar asosida yuzaga chiqadi: ohangdorlik va ma‘noni kuchaytirish. Ruboiydagi “yo‘qtur” so‘zi Bobur qadrlagan uchala ish ham unga nasib etmaganini kuchaytirib ko‘rsatish vazifasini bajargan. She‘riy matndagi *diyorum – qarorim – ixtiyorim* so‘zlarida “r” harfi raviy sifatida so‘zlarning asosi tarkibida ishtirok etgan, bu esa bundan qofiyadosh so‘zlar asliy qofiya ekanligini ko‘rsatadi. Shoir tomonidan keltirilgan qofiyadosh so‘zlarning tartibi ham tadrijiy mohiyat asosida shoir qalbidagi kechinmalarning darajotini belgilab bergan. Shoir dastlab do‘st-u yorlarsiz, vatansiz ekanligini



aytadi, bu vatansizlik esa uni har nafasda bezovta qilayotgani, azoblayotgani “qarori yo‘qlik” birikmasi orqali taqdim qilinadi. Shoir ruboiylarning aksariyatida uchinchi misra to‘rtinchi misradagi xulosaviy fikr uchun ko‘prik vazifasini bajaradi. Ushbu ruboiyda ham ayni xususiyat ko‘zga tashlanadi. Bu ko‘prik misralardagi mazmuniy ketma-ketlik yoki qarshilantirish asosida yuzaga keladi. “Yo‘qtur” radifli ruboiydagi uchinchi va to‘rtinchi misradagi bog‘liqlik lirik qahramon sababchi ikki voqeani bir-biriga zidlash orqali shakllantirilgan, “ixtiyorim” so‘zi garchi ikki marotaba qaytarilgan bo‘lsa-da, ruboiy uslubiga bo‘yoqdorlik bergan. Shoir yorsiz, diyorsiz, qarorsiz holat uni ixtiyorsiz qilib qo‘yganini to‘rtinchi misra orqali ifodalaydi. Ko‘rinib turibdiki, ruboiy mohiyatining asosiy ustuni qofiyadosh so‘zlar orqali berilgan va shoirning uslubiga aylangan.

*Hijron qafasida jon qushi ram qiladur,*

*G‘urbat bu aziz umrni kam qiladur.*

*Ne nav’ bitay firoq-u g‘urbat sharhin,*

*Kim ko‘z yoshi nomaning yuzin nam qiladur* [Bobur, 1965: 170].

Tahlilga tortmoqchi bo‘lganimiz falsafiy mazmundagi ushbu ruboiyda ham asliy qofiya ruboiyning mazmun-mohiyatini anglatishda muhim ahamiyat kasb etgan. Ruboiyning qofiyalanishiga ko‘ra xosai ruboiy turiga kiruvchi ushbu ruboiyda *ram – kam – nam* so‘zlari qofiyadosh so‘zlar sifatida tanlangan bo‘lib, qofiyadosh so‘zlar raviy bilan tugagan. Odatda raviy bilan tugagan muqayyad qofiya turi fikr, mohiyatni tez, qisqa va aniqroq shaklda yetkazish maqsadida keltiriladi. Raviydan keyingi qofiya harflarining kelishi ohangdorlik va ma‘noni kuchaytirish kabi poetik maqsadlarni yuzaga keltirishda muhim ahamiyatga ega [Rustamov, 1976: 18]. Chunki raviydan keyingi huruflar qofiyadosh so‘zlar tarkibida bir xil harflardan tashkil topadi, bu esa takroriylikni, takroriylik asosida ohangdorlik, ohangdorlik asosida ma‘no kuchayishi yuzaga keladi. Ruboiyda keltirilgan *ram – kam – nam* so‘zlari bir bo‘g‘inli so‘zlardan tashkil topgan va shu bilan birgalikda ortiqcha ohangdorlikdan xoli raviy bilan tugagan. Demak, shoirning asosiy maqsadi aniqlik. Hijron – bir qafas. Demakki, qafasda hech kim, hech narsa erkin bo‘la olmaydi. Shuning uchun jon qushi hijron atalmish qafasda hurkib, qo‘rqib yashaydi. G‘urbat, g‘am-u tashvish - inson umrning zavoli. Bu ikki misra hayot haqiqatlarini o‘zida aks ettirgan, shu bois shoir buni aniqlik bilan ifodalagan. Uchinchi va to‘rtinchi misra o‘zaro uyg‘un holatda lirik qahramonning firoq-u g‘urbatining sharhi natijasida ko‘zyoshi nomani nam qilishi tasvirlanadi.

*Ishq ishini botin yana bunyod etayin,*

*Ishqing g‘ami birla xotirim shod etayin.*

*Debsenki, unutmami meni hijron aro, voy,*

*Seni unutib ne kishini yod etayin?* [Bobur, 1965: 155].

Xosai ruboiy shaklidagi ushbu ruboiyda ham lirik qahramon tuyg‘ularidagi aniqlik ko‘zga tashlanadi. Shu sabab Bobur qofiyadosh so‘zlar sifatida muqayyad



qofiya turiga murojaat etgan. *Bunyod – shod – yod* qofiyadosh soʻzlaridagi “d” undoshi raviiy sifatida qatʼiylik va aniqlikni yuzaga keltirgan. Demak, lirik qahramon oʻz ahdida qatʼiy: ishqni boshidan bunyod etishni, maʼshuqa ishqi gʻami bilan xotirini shod etishni maqsad qilgan. eʼtibor qilinsa, qofiyadosh soʻzlar sifatida ham asliy qofiyalar tanlangan: raviiy asoslar tarkibida joylashgan. Maʼshuqa hijron sabab oshiqdan uni unutmashligini soʻrayapti. Oshiq uchun esa yorning bu iltimosi gʻayritabiiy. Chunki oshiq har nafasda yorini eslaydi, uni oʻylaydi. Chunki yori bunga munosib. Yorni unutib, kimni yod etishi mumkin? Bunga arziqli inson bormikan? Shoir tomonidan tanlangan qofiyadosh soʻzlar shoir tomonidan maqsadni berishda muhim ahamiyat kasb etgan. *Bunyod – shod – yod* qofiyadosh soʻzlari qofiya harflarining ishtirokiga koʻra murdof qofiya turini, qofiya qismlarining ishtirokiga koʻra esa mutarodif qofiya turini shakllantirgan. Raviiydan oldingi ridf – “o” unlisini choʻziqligi, yopiq boʻgʻin tarkibida kelishi aniqlik va qatʼiylik mazmunini kuchaytirishga xizmat qilgan. Qofiyaning bu ikki turi turkiy adabiyotda juda koʻp qoʻllangan boʻlib, bu til qonuniyatlaridan kelib chiqqan.

*Ahbob, yigʻilmoqni farogʻat tutungiz!*

*Jamʼiyatingiz borini davlat tutungiz!*

*Chun gardishi charx budurur, Tangri uchun,*

*Bir-birni necha kun gʻanimat tutungiz!* [Bobur, 1965: 145].

Didaktik ruhdagi ushbu ruboiy tarkibidagi *farogʻat – davlat – gʻanimat* qofiyadosh soʻzlar ham asliy qofiya turiga mansub boʻlib, raviiy (“t”) bilan tugagan, muqayyad qofiya turini hosil qilgan. eʼtibor qilinsa, bu ruboiydagi qofiyadosh soʻzlar ham aniqlikka asoslangan nasihat, maslahat mazmunida bitilgan.

*Sen gulsen-u men haqir bulbuldurmen,*

*Sen shuʼlasen, ul shuʼlagʻa men kuldurmen.*

*Nisbat yovqdur deb ijtinob aylamakim,*

*Shahmen elga, vale senga quldurmen* [Bobur, 1965: 162].

Poetik bilimlar egasi Bobur lirikasida poetik shakllar, vazn, qofiya mazmun ifodasini berishda muhim ahamiyatga ega. Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasining qofiya tizimi rang-barang va shoir adabiy merosi turkiy qofiyaning nazariy asoslarini yaratishda asosiy manbalardan biri sanaladi.

### Adabiyotlar:

1. Bobur. Asarlar. 3 jildlik. 1-jild. / Nashrga tayyorlovchi S.Azimjonova, A.Qayumov. –Toshkent, 1965.
2. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent, 1999.
3. Hamroyeva O. Temuriylar davridagi poetikaga doir risolalarda qofiya ilmining qiyosiy tahlili. –Toshkent: Bookprint, 2022.
4. Hamroyeva O. Mumtoz qofiyaning nazariy asoslari. –Toshkent, 2022



5. Hamroyeva O. Navoiyshunoslik. Navoiy lirikasining qofiya tizimi. – Toshkent, Bookprint, 2024.
6. Jalolovna H. O. Improvement Of The Science Of Rhyme In Treatises Of The Timurid Period // American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 2022. 342-348.
7. Nasiruddini To‘siy. Mi‘yar al-ash‘or. / Hozirkunandahoi chop U.Toirov, M.Abdulloyev, R.Çalol. –Dushanbe, 1992.
8. Shamsi Qaysi Roziy. Al-Mu‘jam fi ma‘oyiri ash‘oru-l-ajam. – Dushanbe, 1991.
9. Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog‘a. –Toshkent, 1996.
10. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Fununu-l-balog‘a. (Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev, J.Jo‘rayev) –Toshkent , 2016.
11. Shamsi Qaysi Roziy. Al-Mo‘jam fi ma‘oyiri ash‘oru-l-ajam. – Dushanbe. 1991.
12. Sharq mumtoz poetikasi / Hamidulla Boltaboyev talqinida. –Toshkent. 2006.



## MUNDARIJA

### I SHO‘BA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA FAOLIYATI, DAVLATCHILIK SIYOSATI

Дадабоев Х.	Бобур ҳарбий маҳоратининг Қандаҳор жангида намоён бўлиши	7
Жўрақулов У.	Бобурнинг мўъмин кўнгли	13
Mullaxo‘jayeva К.	Boburiylar tarixining badiiy rekonstruksiyasi: Aleks Rutserford romanlari misolida	20
Темирова Б.	Захириддин Мухаммад Бобур – поэт гуманист	35
Muhterem Saygin	Zahîrüddîn Muhammed Bâbü’ün Hatıratında Buhara ve Semerkant Şehir Kimliği	42
Abduraxmanov SH. Karimova A	Zahiriddin Muhammad Bobur merosining sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni	53
Kemal Yavuz Ataman	Fatih Sultan Mehmed Han ve Zahuriddin Muhammed Babür Şah	58
Ташалиева М.	Государственная политика Захириддина Мухаммада Бабура	70
Fərhadov Ə.R.	Orta əsrlər Hindistanında dini islahatçılıq: Əkbər şah və Dini-İlahi nımunəsi	73
Qo‘yliyeva G.	Yo‘l odamiga yondosh olim	84
Адинаев Ш., Хамидова Д.	Исследование деятельности Захириддина Мухаммада Бабура кыргызским учёным А. Алиевым (Восточный ренессанс)	91
Vahobova M.	Inson umri – shoh-u gadolik yo‘li (Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi misolida)	96

### II SHO‘BA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARINING ADABIY-ESTETIK, ANTROPOLOGIK VA LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Саттарова А.,	Захируддин Мухаммед Бабурдун	102
---------------	------------------------------	-----



Коргонбекова Н., Апазбекова Х.	мурастарындагы инсанды тарбиялоо маселелери	
Xudaybergenova Z.	“Boburnoma”dagi insonni xarakterlovchi ifodalarning turkcha tarjimada berilishi masalasiga doir	110
Shermurodov T.	Boburona uslub va xos mas’uliyat	123
Hüseynova E.	Zahirəddin Muhamməd Baburun əsərlərində təbiət leksikasinin poetikasi və semantikasi	127
Komilova G.	Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida lingvokognitiv tasvir va poetik konseptlar tizimi	133
Xudaykulova Sh.	“Yulduzli tunlar” romanida Bobur aksiologik portreti va qadriyatlar internalizatsiyasi	139
Shodmonova S.	Bobur merosining sivilizatsion modeli: til, madaniyat va estetik tafakkur sintezi	142
Панова Э., Дустмаматова Н.	Филологический аспект литературно- научного наследия Захириддина Мухаммада Бабура	150
Зарипов А.	Абдулла Орипов шеърлятида Бобур ижодининг таъсири	155
Абиева Й.	<b>Профессиональная подготовка учителей начальной школы к развитию экономической грамотности младших школьников: исторический контекст эпохи Бабура</b>	161
Халмуратова М.	Жисмоний тарбия ва Бобур мероси асосида бўлажак ўқитувчилар маданиятини шакллантириш	165
Умарова Р.	Бабур как символ соединения различных культурных традиций: от Туркестана до Индии	169
Жороева А.	Языковое выражение личностных качеств в афоризмах Захириддина Мухаммада Бабура	175
Siddiqova N.	Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida aks etgan maqollar poetikasi	185
Ко‘paysinova Н.	Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida emotsional holat frazeologizmlarining ifodalanishi	189
Xabibjonov I.	Insoniylik va ma’naviyat: Navoiy va Bobur	195



Axmedova A.	qarashlari	
-------------	------------	--

### III SHO‘BA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHE‘RIYATINING ADABIY JARAYON TAKOMILIDAGI O‘RNI

Hamroyeva N.	Bobur ruboiylarida qofiyaning badiiy yuki	199
G‘ulomova N.	Navoiy va Bobur ijodida talmeh san‘ati va uning ijtimoiy-ta‘limiy ahamiyati	204
Xomidova M.	Bobur g‘azallarida allyuziya	211
Аскарова Г., Арыкбаев А., Жумабаев Э.	Поэзия Бабура и его рубаи: обучение человеческим, философским и культурным ценностям	215
Jo‘raqulov S.	Ijtimoiy, siyosiy ma‘naviy-axloqiy masalalarning qit‘a janridagi ifodasi	222
Eshbo‘tayeva Sh.	Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallaridagi musiqa terminlarning lingvopragmatik tahlili	230
Nutfullayeva M.	Zahiriddin Muhammad Bobur she‘riyatida iyyomning qo‘llanilishi	233
Maxamova E.	Navoiy va Bobur lirikasida ma‘naviy-axloqiy masalalar	239
Xurramov O.	Bobur ijodidagi fard va ruboiy janrlarining nashriy tadqiqi	245
Shomurodova S. Kodirova D.	Bobur g‘azaliga bog‘langan muxammaslar	251

### IV SHO‘BA. “BOBURNOMA”NING ADABIY-LINGVISTIK VA TARIXIY-SOTSIOLOGIK TALQINLARI

Uluqov N.	Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ayrim tarixiy toponimlar talqini	255
Jalilova M.		
Tanju Seyhan	<i>Baburname</i> özelinde Babur şah’in metin kurgusu, bağlamla ilgili bazı dilbilimsel gösterimlerin kullanımı	261
Farhad Rahimi	Babürname’de etnik anlami taşıyan adlar üzerine	273



Kemal Yavuz Ataman	Fatih Sultan Mehmed han ve Zahuriddin Muhammed Babür şah	285
Мамуров Қ.	“Бобурнома”нинг инглизча таржимаси ва сабоқлари	297
Fayzullayeva O.	“Boburnoma”da ijodkorlarga munosabat	310
Озерен М.	Описание в “Бабур-наме”	316
Рамазанова Ш.	“Бабур-наме” в контексте истории, литературы и культуры ранней эпохи великих моголов	321
Шеронов Б.	“Бобурнома”нинг айрим лисоний хусусиятлари ҳақида	325
Раҳмонқулов А.	Бобурномада Хўжанд ҳақидаги қайдлар (Проф.Э.Шодиев маъруза матнлари асосида)	331
Олимджонов М.	Таджикская лексика в “Бабурнаме” Захируддина Мухаммада Бабура	336
Tog‘ayev T.	“Boburnoma” asarida kurash va pahlavon kurashchilar tasviri	345
Muhammadiyeva D.	“Boburnoma” turkcha va qozoqcha nashrlaridagi so‘zliklarning lingvistik tahlili	350
Sharafiddinov X., Sharafutdinova N.	“Boburnoma” – qomusiy asar sifatida	358
Nasirdinova Y.	Bobur obrazi va “Boburnoma”ning Fransiyadagi ilmiy retseptsiyasi	362
Alkaya E., Karayeva A	Literary-linguistic and historical-sociological interpretations of “Baburnama”	371
Iskandarov F.	Rus sharqshunosligida “Boburnoma” tadqiqi	380
Tuxtasinova M	“Boburnoma” asarining L.Z. Budagov qiyosiy lug‘atidagi manbashunoslik ahamiyati	384
Aslonov I.	“Boburnoma” da tush fenomeni	391
Ахмедова (Охунова) Г.	Интерпретация образов Ферганской долины и города Ош в произведении “Бабурнаме”	395
Рыспакова М	Лексико-грамматические параллели между языком «Бабурнаме» и кыргызскими	402



	ДИПЛОМАТИЧЕСКИМИ ДОКУМЕНТАМИ XVIII-XIX ВЕКОВ	
Xakimov D.	“Boburnoma”da diniy leksikaning leksik- semantik va funksional xususiyatlari	409
Normatov S.	“Boburnoma”da muloqot madaniyatining ijtimoiy-falsafiy asoslari hamda tarixiy- sotsiologik talqini	420
Muzaffarova Z.	“Boburnoma” asarida qo‘llangan metonimik birliklarning kognitiv tahlili	430
Muhammadzokirova M.	“Boburnoma”ning uslub xususiyatlari	434
Xabibullayeva F.	“Boburnoma”da arxaizmlar: lingvistik talqin va tarjima tahlili	440
Деркембаева А.	“Бабурнаме” как источник историко- культурного сознания Востока	443
Abdazova G.	“Boburnoma”da sodda gaplarning shakliy va mazmuniy aks etishi	451
Turg‘unboyeva D.	“Boburnoma” asarida hisob so‘zlarning semantik-funksional xususiyatlari.	455
Касимов И., Кодиржонова Х.	Литературно-лингвистическая и историко- социологическая интерпретация “Бабур- наме”	464
Xurramov Z.	“Boburnoma”ning adabiy-lingvistik va tarixiy- sotsiologik talqinlari	471
Жураева М.	Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida avtobiografizm badiiy tamoyil sifatida	476

## V SHO‘BA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ADABIY-ILMIY MEROSINING FILOLOGIK ASPEKTI

Teshaboyeva Z.	Ummondan durlar	481
Turobov A.	Mustaqillik davrida boburshunoslik	487
Алиева Ф.	Захриддин Мухаммед Бабур кыргыз окумуштууларынын изилдөөлөрүндө: илимий көз	491